

## QURG'OQCHILIKKA VA ISSIQQA CHIDAMLI BUG'DOY NAMUNALARINI TEKSHIRISHNING ILMIIY AHAMIYATI

*Qarshi muxandislik iqtisodiyot instituti  
Jumayev U.G'.*

**Annotatsiya:** Maqolada kuzgi bug'doy nav va namunalarining sug'oriladigan erlarda qurg'oqchilik va issiqlikka chidamliligi va boshqa omillar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shu asnoda kuzgi bug'doyning qurg'oqchilikka va issiqlikka chidamliligini baholash usullari o'suv davrining har xil bosqichlarida hamda rivojlanish bosqichlarining birinchi fazasida aniqlash mumkinligi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar.** Kuzgi bug'doy, qurg'oqchilik, issiqlik, chidamlilik, nav, namuna, o'suv, o'nuvchanlik, ildizchalar soni, uzunlik, hosildorlik, don sifati.

**Kirish.** O'zbekistonda bug'doy ekiladigan mintaqalar iqlimining asosiy xususiyatlardan biri qurg'oqchil va issiq sharoit hisoblanadi. O'zbekistonda tez-tez sodir bo'ladigan qurg'oqchilik bug'doyning o'suv davri davomida o'simlikka katta ta'sir ko'rsatib, hosildorlik va don sifatining pasayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun O'zbekistonda yaratiladigan yangi navlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri-bu yuqori mahsuldorlikka ega bo'lgan holda qurg'oqchilik va issiqlikka chidamlilik xususiyatidir. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda qurg'oqchilikka chidamli navlarni o'rganish va tanlab olish maqsadga muvofiqdir.

**Tadqiqot predmeti va uslubi.** Tajribada kelib chiqishi turli ekotiplarga mansub 100ta nav va nav namunasi ustida ish olib borildi. Qurg'oqchilikka chidamli navlar yaratish maqsadida yumshoq bug'doy nav va namunalarining qurg'oqchilikka chidamliligi laboratoriya sharoitida urug'larning saxaroza eritmasida unib chiqishi, ildizchalar soni va uzunligini baholash asosida o'rganildi. O'simliklarning qurg'oqchilikka chidamliligini aniqlashning birinchi usullaridan biri 1927 yilda A.Bulingera tomonidan asos solingan urug'larni saxaroza eritmasida o'stirishdan iborat. Biz olib borgan tajribada qurg'oqchilikka chidamlilik darajasi N.Kojushko uslubi asosida, Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Qashqadaryo filialining o'simliklar fiziologiyasi laboratoriyasida aniqlandi.

### **Tadqiqot natijasi**

J.Lelleyning ta'kidlashicha, qurg'oqchilikka chidamlilik bug'doy o'simligining barcha o'suv davrida birday bo'lmaydi. Qurg'oqchilik, ma'lumki, tezda keng maydonlarni qamrab oladi va ekinlarning hosildorligini keskin pasaytiradi. Buning natijasida qishloq xo'jalik ekinlari katta zarar ko'radi. Qurg'oqchilikka qarshi kurashning muhim tadbirlaridan biri ekinlarning qurg'oqchilikka chidamli navlarini yaratishdir.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston sharoitida qurg'oqchilikka bardoshli, issiqlikka chidamli bug'doy navlarini yaratishda jahon koleksiyasi namunalari va boshlang'ich manbalarni qurg'oqchilikka va issiqlikka chidamliligini laboratoriya sharoitida baholandi. Bugungi kunda o'simliklarning qurg'oqchilikka va issiqlikka chidamliligini baholash usullari o'suv davrining har xil bosqichlarida hamda rivojlanish bosqichlarining birinchi fazasida aniqlash mumkin.

R.A.Borodinaning ta'kidlashicha eritma konsentratsiyasida urug'ni undirishda har yili tuzatma kiritib borish lozim. Chunki har xil yilda etishtirilgan urug'larda unib chiqish quvvati turlicha bo'ladi. G'arbiy Sibir sharoitida bahorgi yumshoq bug'doyni qurg'oqchilikka chidamliligini o'rgangan O.I.Gamzikov va L.G.Gudinovalar ham yuqoridagi fikrga kelishgan.

Olib borilgan tajribada andoza "Yaksart" navining unuvchanligi unib chiqqan maysalar soniga ko'ra, nazorat variantida 92 % ni, saxaroza eritmasida 97 % ni, ildizchalar soni nazorat variantida 3.9 dona va saxaroza eritmasida 3 donani tashkil etdi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Qurg'oqchilikka chidamli yumshoq bug'doy nav va namunalarini laboratoriya sharoitida baholash

T/r	D	Nav va namuna nomi	Unuvchanlik, %	Ildiz soni, dona		Ildiz uzunligi, sm		Koleoptile uzunligi, sm	
				K	C	K	C	K	C
1	1	H Beshir	97	3,9	3	9,2	3,7	3,9	2,3
2	11	Yaksart	97	4	3	9,2	1,6	3,5	1,6
3	3	BONITO-36/BILINMIYEN96.55 D-19	99	3,7	3.9	4.6	4.2	3.3	3.2
4	7	LUTESCENS-42*2//PBW343*2/KUKUN A D-59	99	4.8	4.6	6.1	4,8	5.2	4,3
5	16	LUTESCENS-42*2/4/SERI.1B*2/3/KAUZ*2/BOW//KAUZ D-50	96	4,3	4,1	7,1	6,7	4,5	4,2
6	9	SKIPHYANKA*2//PRL/2*PASTOR D-79	99	3,5	4,2	7,3	6,1	5	4,5
7	21	AGRI/NAC//ATTILA/3/PYN/2*BAU	96	3,4	3	8,6	4,7	4.8	3,7
8	22	OGALLALA/KS95WGRC 33//JAGGER/3/BETTY	98	5	4.3	6.4	5,8	4,9	4,6
9	41	AGRI/NAC//ATTILA/3/DORADE-6	98	4,6	4,3	5,4	4,1	4,9	4,6

10	42	8229/OK81306//SHARK-4/3/BONITO-37	97	4,1	4,4	4,1	6,3	3,8	4,9
11	43	ID800994W/VEE//F900K/3/PONY/OPATA/4/BUCUR D-23	96	4,5	4,8	6,7	7,9	5,8	5,3
12	44	SAD1//KATE/MVM/3/GENE/4/PEHL//VORN/BAU	99	4,2	3,6	5,1	4,6	4,8	4
13	64	ANAST/3/LUFER-1/MV OPT//F6038W12.1 D-35	99	4,8	4	5,5	4,9	4,8	3,8
14	65	KARLYGASH*2/TUKURU D-45	97	4,3	3,4	4,4	4	3,9	3,2
15	69	STEKLOVIDRAYA-24/4/SERI.1B*2/3/KAUZ*2/BOW//KAUZ D-85	99	3,7	3,9	4,8	5,3	4,8	4,3
16	70	SKIPHYANKA/4/SERI.1B*2/3/KAUZ*2/BOW//KAUZ D-95	98	3,3	3	5,4	4,7	3,4	3,2
17	58	SKIPHYANKA*2/4/SERI.1B*2/3/KAUZ*2/BOW//KAUZ D-74	99	3,8	3,2	6,5	5,9	4,7	4,3
18	95	ALMALY*2//PRL/2*PASTOR	96	3,9	3,3	3,6	3,2	2,5	2,9
19	96	LUTESCENS-42*2/TUKURU	100	3,6	3,1	3,8	3,4	3,4	3,2
20	99	ALMALY//PRL/2*PASTOR D-88	99	3,3	2,9	3,6	3,2	3,5	2,7
21	100	KUPAVA//PBW343*2/KHVAKI	99	4,1	3,9	5	4,8	3,4	3

O'rganilayotgan namunalarda unib chiqqan maysalar soni nazorat variantida 92-100 %, saxaroza eritmasida 97-100 % nazorat naviga nisbatan tanlab olingan nav namunalarda ildizchalar soni bo'yicha suvda 3,3-5,0 dona va saxarozada 2,9-4,8 dona oraliqda bo'lganligi aniqlandi. Andoza "Yaksart" naviga nisbatan qurg'oqchilikka chidamliligi yuqori bo'lgan 19 ta nav va namunalar nazorat variantda 98-100 % unuvchanlikka ega bo'lib, saxaroza eritmasida bu ko'rsatkichlar tegishli 96-100 % ni tashkil etdi.

Tajriba natijasiga ko'ra qo'yidagi yumshoq bug'doy namunalarining (OGALLALA/KS95WGRC33//JAGGER/3/BETTY,LUTESCENS42\*2//PBW343\*2/KUKUNAD59,ID800994W/VEE//F900K/3/PONY/OPATA/4/BUCURD-23) saxaroza eritmasidagi ko'rsatkichlari, ya'ni unib chiqqan maysalar va ildizchalar soni hamda ildizchalar va koleoptile uzunligining andoza nav va namunalardan yuqori bo'lganligi sababli kelgusida seleksiya jarayonlarida qurg'oqchilikka chidamli yumshoq bug'doy navlarini yaratish va chatishtirish uchun tanlab olindi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Chiniqulov B. Yumshoq bug'doyning ba'zi namunalarida qurg'oqchilikka chidamlilikni o'rganish // O'zbekistonda bug'doy seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish texnologiyasiga bag'ishlangan birinchi milliy konferensiya: Ilmiy konf. ma'ruzalar to'plami. 17-18 may 2004. – Toshkent, - B.412-414.
2. Р.А.Бородина. "Комплексная физиологическая оценка засухо-и-жароустойчивости озимой пшеницы в условиях Узбекистана".(Методические указания).
3. Umirov N.J., Xayitboev A.X., Nurbekov A.I. Yumshoq bug'doyning jahon kolleksiya namunalaridan boshlang'ich materiallar. //O'zbekistonda bug'doy seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish texnologiyasiga bag'ishlangan birinchi milliy konf. T. 2004. B.112-126.
4. М.А.Аманов. "Устойчивост пшеницы Узбекистана к неблагоприятным факторам среды". "ФАН". Ташкент-1978 г.